



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 307 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida).....	14
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish	20
Sattarov Umirzoq	
Современные банковские продукты	24
Хужамуратов Аббос Мардонович	
Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi.....	29
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики.....	33
Ибрагимов Тимур Ибодуллович, Асланова Дилбар Хасановна	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi.....	39
Kabulov Baxram Kuzibaevich	
Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni.....	45
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish.....	51
Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li	
Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari.....	59
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	66
Исомов Б. С.	
Tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati.....	70
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda DXSHning o'rni: madaniyat va sport sohasida imkoniyatlar	78
Baykalonov Jalil G'aybulloevich	
Анализ состояния и перспективы развития активного и спортивного туризма в Узбекистане.....	93
Бойко Фарида Чингисовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Переоценка и фальсификация стоимости имущества: международные практики, риски и пути решения.....	99
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
Hudud sanoati tarkibiy o'zgarishlarini prognozlash usuli.....	106
Djumayev Farrux Toshmurotovich	
Углеродный след и декарбонизация промышленности Узбекистана: роль возобновляемой энергетики и международный опыт	111
Авезова Нилуфар Раббанакуювна, Ощепкова Эльвира Ахтемовна, С.М. Махмудов, А.А. Холиков, Авезова Нилуфар Раббанакуювна	
The process of developing startups based on management principles	119
Ilxamov Azizbek Yodgor o'g'li	
The impact of economic policy on non-performing loans: the case of Uzbekistan.....	126
Jalalov Mashkhurbek Gaybullo ugli	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	134
Исомов Б. С.	



Ko'p kvartirali uylarni boshqaruv organlari tomonidan aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni qo'llab quvvatlashni takomillashtirish	138
Umarov Begzodbek Jaloldinovich	
O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional asoslari.....	143
Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich	
Davlat - xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini oshirish.....	150
Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich, Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari.....	155
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Tijorat banklari likvidligini tartibga solish yo'llari.....	160
Tursunpo'latov Sohbnazar Kasimjon o'g'li, Nomozova Mohinur Maxmud qizi	
Atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishda yashil moliya vositalarining roli: xalqaro tajriba va O'zbekiston imkoniyatlari	163
Yuldasheva Madina Tohir Qizi	
Geofazoviy ma'lumotlar asosida hududlarning farovonlik darajasini aniqlash	173
Toymasov Zufarjon Zokir o'g'li	
Методы и критерии оценки эффективности конкурентоспособности предприятия	179
Кучаров Абдор Сабижанович, Бобожонов Азиз Бабаханович, Алижанова Камила Тохир кизи	
Korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	187
Narbayeva Dilnoza Darvishaliyevna	
Development of entrepreneurship in Uzbekistan: management strategies in the context of economic reforms	192
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
Aloqa korxonalari xizmat faoliyatida diversifikatsiya qilishning ilmiy baholash usullari va ulardan foydalanish.....	197
Tursunova Mastura Taxirovna	
Developing effective marketing strategies for tourism development in Uzbekistan	204
Fayzullayev Nodirbek Baxtiyor o'g'li	
Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	208
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzayevich	
Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida investitsiya loyihalarini bank kreditlari orqali moliyalashtirish.....	212
Jamalova Dilnoza Egamberdiyevna	
Цифровизации системы стратегического управления предприятий нефтегазовой отрасли Республики Узбекистан.....	217
Азимов Кабул	
Индекс устойчивости региона против бедности (poverty resilience index – pri): на примере бухарской области Республики Узбекистан (2024)	223
Мухамедова Мадинабону Мехридиновна	
Экономические аспекты внедрения цифровых технологий в полиграфии.....	230
Юсупхужаева Шахноза Музаффар кизи	
Mintaqalararo iqtisodiy hamkorlikni shakllantirish va barqaror rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	233
Sattorov R. A.	
Web3'da real vaqt ma'lumot sinxronizatsiyasi — tarmoqdagi kechikishlar va ularni kamaytirish texnologiyalari.....	240
Raimov Ulugbek Yorqinbek o'g'li	
Tijorat banklarining likvidligini tartibga solish amaliyotining dolzarb masalalari	246
Sayfutdinov Bobur Nodirovich	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	255
Yuldoshev Otabek Jovli o'g'li	



Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish yo'llari.....	261
Ortiqov Sidiqjon Xolmurodovich	
Innovatsion yondashuvlar orqali davlat xaridlarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish	266
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich	
Hududlarda barqaror rivojlanish nazariyalarining sanoat korxonalari faoliyatiga ta'siri	270
Sadriddinov Baxtiyor Shamshiddin o'g'li	
Turizm platformalarining raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy kontent va raqamli marketing strategiyalarining integratsiyalashgan yondashuvi.....	277
Dadamirzayev Sarvarbek Ulug'bek o'g'li	
Bank xizmatlarida innovatsion texnologiyalarni kengaytirish yo'nalishlari.....	283
Almosova Shohista Jobirovna	
Модели организации казначейства в ведущих стран мира.....	288
Сагдиев Равшан Сайфуллаевич	
Parrandachilik mahsulotlari omilli tahlil qilishda indeks usulidan foydalanish.....	293
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini nazariy jihatlar va rivojlantirish yo'llari.....	302
B.Sh.Shadmanov	



PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARI FAOLIYATINI NAZARIY JIHATLARI VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

B.Sh.Shadmanov

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
"Iqtisodiy fanlar" kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatining nazariy asoslari, shakllanish bosqichlari hamda ularni rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi. Porter, Elsner, Rozenfeld va boshqa olimlarning klaster haqidagi konseptual yondashuvlari mahalliy amaliyot bilan qiyoslanib, "fermer—klaster—tayyor mahsulot" modeli doirasida qo'shilgan qiymat zanjirining samaradorligi asoslanadi. Tadqiqotda tizimli yondashuv, statistik va komparativ tahlil, abstrakt-mantiqiy umumlashtirish usullari qo'llanilgan. Natijalarga ko'ra, xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan integratsiya kuchayib, ishlab chiqarish hajmlari va eksport salohiyati ortadi, hududiy bandlik va sanoatlashuv rag'batlanadi. Shu bilan birga, moliyaviy yukning yuqoriligi, boshqaruvdagi shaffoflik yetishmasligi, kadrlar salohiyati va texnologik bazani modernizatsiya qilish zarurati kabi kamchiliklar aniqlangan.

Kalit so'zlar: paxta-to'qimachilik klasteri; klasterlashuv; qo'shilgan qiymat zanjiri; investitsion faollik; eksport salohiyati; davlat-xususiy hamkorlik; boshqaruv shaffofligi; texnologik modernizatsiya; suv-tejovchi texnologiyalar; iqtisodiy xavfsizlik.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of cotton-textile clusters in Uzbekistan, their formation stages, and development paths. By comparing Porter, Elsner, Rosenfeld, and other scientists' conceptual approaches to clusters with local practice, the effectiveness of the value-added chain within the "farmer - cluster - finished product" model has been substantiated. The research used the methods of a systematic approach, statistical and comparative analysis, and abstract-logical generalization. As a result, integration from raw materials to finished products will be strengthened, production volumes and export potential will increase, and regional employment and industrialization will be stimulated. At the same time, such shortcomings as high financial burden, lack of transparency in management, personnel potential, and the need to modernize the technological base were identified.

Key words: cotton-textile cluster; clustering; added value chain; investment activity; export potential; public-private partnership; transparency of management; technological modernization; water-saving technologies; economic security.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы деятельности хлопково-текстильных кластеров в Узбекистане, этапы их формирования и пути их развития. Сравнивая концептуальные подходы Портера, Элснера, Розенфельда и других ученых к кластеру с местной практикой, обоснована эффективность цепочки добавленной стоимости в рамках модели "фермер - кластер - готовая продукция." В исследовании использованы методы системного подхода, статистического и сравнительного анализа, абстрактно-логического обобщения. В результате усилится интеграция от сырья до готовой продукции, увеличатся объемы производства и экспортный потенциал, будут стимулироваться региональная занятость и индустриализация. Вместе с тем выявлены такие недостатки, как высокая финансовая нагрузка, отсутствие прозрачности в управлении, кадровый потенциал и необходимость модернизации технологической базы.

Ключевые слова: хлопково-текстильный кластер; кластеризация; цепочка добавленной стоимости; инвестиционная активность; экспортный потенциал; государственно-частное партнерство; прозрачность управления; технологическая модернизация; водосберегающие технологии; экономическая безопасность.

KIRISH

Xalqaro maydondagi yuz berayotgan voqealar jahon xo'jaligida iqtisodiy hamkorlik tizimini zayiflashirib, iqtisodiy munosabatlarda strategik tuzilmalarni o'zgarishiga, globallashuv jarayonini sekinlashuviga, global iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni kuchaytirmoqda va bu tahdidlardan himoyalashda asosiy omillardan biri iqtisodiy aloqalarni tobora mustahkamlash, kengaytirishni takomillashgan shakllaridan foydalanish hisoblanadi. Ichki va xalqaro bozorlarda samaradorlikni ta'minlash maqsadida bozor subyektlarini rivojlantirish strategiyalariga qo'yiladigan talablar keskin oshib, tovar va xizmatlarning iste'mol qiymati sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda klaster xo'jaliklarni shakllanishi zamonaviy eng munozarali



hodisalaridan biridir. Paxta va to'qimachilik sanoati O'zbekiston iqtisodiyoti uchun strategik yo'nalish bo'lib, klasterlashuv sohani global qiymat zanjiriga chuqurroq integratsiya qilish, qo'shimcha qiymat va ish o'rinlarini ko'paytirish uchun eng salohiyatli mexanizmlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda davlat boshqaruvining liberallashtirish, majburiy mehnatga barham berilishi hamda "fermer—klaster—tayyor mahsulot" modeliga o'tish klasterlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi[1] 26-maqсадida investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmini oshirish bo'yicha, "pastdan-yuqoriga" tamoyili asosida, yangi tizimni yo'lga qo'yish belgilangan. Shuningdek milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirish, qishloq xo'jalik yillik o'sishini 5 foizga oshirish, Mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish kabi maqsadlarini amalga oshirishda paxta-to'qimachilik klasterlar faoliyatini chuqurroq o'rganish, ularni chigit ekishdan tortib to tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni sinchkovlik bilan tahlil qilishni taqozo qiladi. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va aholi turmush farovonligini ta'minlashda agrar sektorni rivojlantirishga muhim yo'nalishlardan biri sifatida e'tibor qaratilmoqda. "Tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va davlatning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishdagi rolini kamaytirish, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jalb qilishni rag'batlantirish, paxta xomashyosini yetishtirish va boshqa turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishning samarali usullarini joriy etish, ularni chuqur qayta ishlashni tashkil etish, hosildorlik va ish haqini oshirish maqsad qilingan"[2]. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda respublikamizda faoliyat yuritayotgan paxta-to'qimachilik klasterlarida investitsion faolligini yanada oshirishda ta'sir etuvchi holatlarni, xususan paxta-to'qimachilik klasterlarida fermerlar bilan hamkorlik munosabatlarini o'zaro manfaatli, adolatli tamoyillar asosida tashkil qilish, paxta-to'qimachilik klasterlarini investitsion loyihalarini amalga oshirishda moliyaviy resurslarni to'g'ri taqsimlash jarayonida, paxta-to'qimachilik klasterlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, paxta-to'qimachilik klasterlarini investitsion qaror qabul qilishda to'g'ri strategiya tanlashga ta'sir etuvchi omillar va shart-sharoitlarni kengroq tadqiq etishni taqozo etadi

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maykl Porter ta'rifiga ko'ra, klaster — bu ma'lum sohada faoliyat yurituvchi, o'zaro bog'langan va geografik yaqin joylashgan korxonalar hamda tashkilotlar guruhi [3]. Mahalliy tadqiqotchilar esa paxta-to'qimachilik klasterlarini "xom ashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan bosqichlarning uzluksiz birikishi va ishtirokchilarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi xo'jalik tizimi" deb ta'riflaydi [4].

V. Elsnerning fikriga ko'ra klaster — bu vertikal va gorizontal ravishda funksional bog'langan firmalar guruhidir. Funksional yondashuv klasterni qo'llab-quvvatlovchi firmalar va institutlar o'rtasidagi mavjud munosabatlarning sifatini ta'kidlaydi va bunday munosabatlar bozor orqali aniqlanadi deb tavsiflaydi.

S. Rozenfeld esa klaster — bu ularning geografik yaqinligi va o'zaro bog'liqligi tufayli sinergiya ishlab chiqarishga qodir bo'lgan, garchi ularning bandlik ko'lamini aniq yoki sezilmaydigan bo'lsa ham, firmalar konsentratsiyasi, ya'ni klaster orqali firmalarning barcha resurslarini konsentratsiyalashishini ta'minlab beradi.

M. Shtayner va K. Xartmannning ta'rifiga ko'ra: "Klaster — bir-birini to'ldiruvchi bir qator firmalar (ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohalarida), davlat, mehnat bozori va/yoki kirish-chiqish aloqalari va/yoki texnologik aloqalar bilan bog'langan xususiy va yarim davlat ilmiy-tadqiqot institutlari va rivojlanish institutlari tizimidir" deb ta'rif bergan.

T. Rolandt va P. den Hertag esa klasterlarning mahsulot qo'shilgan qiymat zanjiridagi rolini ta'kidlab, ularni "bir-biriga yuqori darajada bog'liq bo'lgan (jumladan, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar) va bir-biri bilan doimiy aloqada bo'lgan ishlab chiqaruvchilar tarmog'i sifatida" tasvirlagan.

Mahalliy olimlarimizdan Sh.Shodmonov tomonidan Klaster - bu yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan agrar, sanoat va boshqa izdosh korxonalar majmui bo'lib, u ilm-fan, ta'lim hamda agrar sanoat sohalarida ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish, fan-texnika yangiliklarini, innovatsion g'oyalarni, yangi texnika va texnologiyalarni amaliyotga jadal joriy etib, mehnat unumdorligini, qo'shimcha mahsulot yaratishni oshirish imkonini beruvchi xo'jalik tizimidir degan fikrni ilgari surgan.

Ushbu yondashuvlar klasterlar iqtisodiyotning rivojlanishida qanday yangi iqtisodiy munosabatlar va hamkorlik shakllarini yuzaga keltirishini ko'rsatadi. Ayniqsa, mehnat bozori, texnologik almashinuv, hamkorlikdagi innovatsiyalar va ishlab chiqarish samaradorligi kabi omillar klasterlarning muhim jihatlari sifatida e'tirof etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mahalliy va xorijiy olimlarning klaster xo'jaliklarini mohiyati, xususiyati, imkoniyatlari, makro va mikro darajadagi ahamiyatini nazariy qarashlarini va bugungi kundagi paxta-to'qimachilik klasterlarni faoliyati, iqtisodiy holatini statistik tahlil qilish, amaliy o'rganish, tizimli yondashish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullardan foydalanilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda paxta-to'qimachilik klasterlari iqtisodiy rivojlanishning yangi paradigmasi sifatida keng tarqalmoqda. Ular bozor iqtisodiyotida raqobatbardoshlikni oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va innovatsiyalarni joriy qilish uchun muhim omil hisoblanadi. Paxta-to'qimachilik klasterlarining asosiy konsepsiyasi bir-biriga bog'liq korxonalar, ilmiy-tadqiqot institutlari va davlat tuzilmalarining bir joyda to'planishidan iborat. Bu klasterlashuv jarayoni sinergiya ta'sirini yuzaga keltiradi, natijada mahsulot sifatining oshishi va ishlab chiqarish samaradorligining ortishi kuzatiladi.

O'zbekistonda paxta-to'qimachilik klasterlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi paxta yetishtirish, undan qo'shilgan qiymat yaratish va mahalliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan strategik yondashuvdir. Paxta-to'qimachilik klasterlarni tashkil etishning asosiy maqsadi – geografik jihatdan yaqin joylashgan paxta xom ashyosini ishlab chiqaruvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan qayta ishlovchi sanoat xo'jaliklarini o'rtasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

Paxta-to'qimachilik klasterlarining jahon tajribasi ham ularning samarali faoliyat yuritishini tasdiqlaydi. Ayniqsa, AQSh, Xitoy, Turkiya kabi mamlakatlarda klasterlash jarayonlari iqtisodiyotning yuqori rivojlanish sur'atlarini ta'minlashga imkon berdi. O'zbekistonda ham klasterlar tashkil etilishi natijasida mahsulot hajmi oshib, eksport salohiyati kengaymoqda. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining umumiy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Respublikamizda paxta-to'qimachilik klasterlarining shakllanishi va rivojlanishini quyidagi bosqichlarga ajratishimiz mumkin.

2017-yil — Prezidentning PQ-2978-son qarori bilan birinchi klaster korxonasi tashkil etildi [2].

2020–2023-yillar — paxta yetishtirish va xarid kvotalari bekor qilindi; shartnoma asosida erkin munosabatlar joriy etildi.

2024–2025-yillar — imtiyozli kreditlar muddati uzaytirildi, foiz xarajatlari qoplab berilmoqda va klasterlar moliyaviy sog'lomlashtirilmoqda [5]

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan paxta-to'qimachilik klasterlariga birlashtirilgan paxta maydonlari [6]

	Paxta maydoni(ga)				
	2019	2020	2021	2022	2023
Qoraqalpog'iston respublikasi	31290,0	48665,0	85000,0	88575,0	87980,0
Andijon viloyati	49 817,0	79 391,0	84 226,0	78 966,0	76 196,5
Buxoro viloyati	112 329,0	97 900,0	92 805,0	94 084,0	94 084,0
Jizzah viloyati	28 068,0	69 580,0	80 113,0	77 613,0	79 840,6
Qashqadaryo viloyati	57 900,0	104 266,0	124 629,0	128 878,0	132 846,9
Navoiy viloyati	32 600,0	32 588,0	32 588,0	31 655,0	33 155,0
Namangan viloyati	55 182,0	63 406,0	63 406,0	63 406,0	63 406,0
Samarqand viloyati	75 580,0	74 519,0	75 463,0	75 409,0	77 473,0
Surxondaryo viloyati	43 446,0	66 944,0	72 370,0	64 620,0	75 339,0
Sirdaryo viloyati	42 607,0	64 557,0	72 557,0	74 993,0	75 500,3
Toshkent viloyati	19 800,0	51 762,0	72 161,0	72 161,0	69 032,0
Farg'ona viloyati	44 610,0	52 405,0	82 080,0	82 080,0	81 224,0
Xorazm viloyati	33 230,0	74 189,0	82 757,0	82 757,0	71 800,3
Respublika bo'yicha	626 459,0	880 172,0	1020 55,0	1015197,0	1017 77,6

1-jadval ma'lumotlarida paxta-to'qimachilik klasterlari tasarrufidagi paxta maydonlari va ular bilan paxta xom ashyosini sotib olishdagi hamkor paxta yetishtiruvchi fermerlarning paxta maydonlari ham kiritilgan bo'lib 2019-yildan 2023-yilgacha oshib borgan.



2-jadval. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan olingan paxta tolasi [6]

	Olingan paxta tolasi(tonna)				
	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.
Qoraqalpog'iston respublikasi	62660,0	114850,0	230264,0	234288,0	265 052,0
Andijon viloyati	147 395,0	251 699,8	296 589,0	283 247,0	289 385,5
Buxoro viloyati	318 300,0	331 800,0	323 897,0	350 665,0	379 434,0
Jizzah viloyati	110 439,0	198 296,4	254 947,0	263 141,0	287 298,0
Qashqadaryo viloyati	179 557,0	307 838,0	398 250,0	413 680,0	406 581,5
Navoiy viloyati	94 600,0	99 100,0	110 350,0	114 504,0	105 684,0
Namangan viloyati	166 143,0	201 250,0	215 172,0	221 412,0	236 060,0
Samarqand viloyati	205 000,0	211 768,0	242 491,0	254 784,0	257 110,0
Surxondaryo viloyati	139 680,0	220 507,0	245 484,0	255 441,0	270 274,2
Sirdaryo viloyati	95 575,0	179 514,0	231 606,0	239 145,0	300 249,0
Toshkent viloyati	61 000,0	163 020,0	244 905,0	249 881,0	243 285,0
Farg'ona viloyati	126 700,0	157 620,0	279 537,0	284 491,0	287 830,0
Xorazm viloyati	99 190,0	231 220,0	288 997,0	293 373,0	310 523,0
Respublika bo'yicha	1806 39,0	2 668 483,2	3362489,0	3458 052,0	3638766,2

2-jadvalda Qoraqalpog'iston respublikai va viloyatlar kesimida faoliyat yuritayotgan klasterlar tomonidan yetishtirilgan va qabul qilingan paxta tolasini miqdori ifoda etilgan. Ma'lumotlar asosida shuni xulosa qilishimiz mumkinki 2019-yildan 2023-yilgacha respublikamiz hududida paxta tolasini yetishtiradigan xo'jaliklarni paxta-to'qimachilik klasterlarga birikish jarayoni yuz berib, paxta tolasini ishlab chiqarish va uni chuqur qayta ishlashda yangicha tizim shakllangan.

Paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil qilish va uni rivojlantirish respublikamizda olib borilayotgan islohotlarni bir qismi sifatida qarashimiz bejiz emas, sababi respublikamizda paxta tolasini ishlab chiqaruvchi hududlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bevosita klasterlar faoliyatiga bog'lanib ketgan va ayrim ijtimoiy muammolarni yechimi paxta-to'qimachilik klasterlar zimmasiga yuklatiladi. Bular quyidagilar:

Qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish. Paxta-to'qimachilik klasterlar paxta tolasini ishlab chiqarishdan uni tayyor mahsulotgacha barcha bosqichlarida ishlab chiqarishni tashkil etish orqali yalpi hududiy mahsulotni ko'paytirish.

Eksport va valuta tushumini oshirish. Paxta-to'qimachilik klasterlarning strategik maqsadlari hududiy eksport salohiyatini oshirish va import o'rni bosuvchi tovarlarni ko'paytirishga qaratilgan.

Ish o'rinlari yaratish va hududlar rivoji. Paxta-to'qimachilik klasterlar yangi ishchi o'rinlarini yaratish orqali hududdagi aholi bandligini ta'minlashga o'z hissasini qo'shishi lozim.

Xususiy sektorni jalb qilish. Har bir paxta-to'qimachilik klasterda yetakchi konsorsiumlar sifatida markaziy rolini o'ynaydi va natijada hududda joylashgan boshqa xo'jalik subyektlarini birlashtiruvchi mexanizmi vazifasini bajaradi.

Paxta tolasini ishlab chiqaruvchi hududlarni rivojlantirish. Paxta tolasini ishlab chiqarishda zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash orqali hosildorlikni oshirish va qishloq hududlarida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirishda paxta-to'qimachilik klasterlarni o'rni yuqori.

Global iqlim o'zgarishlar va suv resurslarini tanqisligiga moslashish. Klaster tizimida zamonaviy tomchilatib sug'orish, lazer tekislagich, namlik sensori kabi innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali suv sarfi kamayadi, tuproq sho'rlanishi va degradatsiyasiga qarshi kurashda almashlab ekish, meliorativ chora-tadbirlar va ekologik muvofiq agrotexnik usullar klaster doirasida tizimli amalga oshiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish jarayoni mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u nafaqat agrar sohaning samaradorligini oshirish, balki qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish, eksport salohiyatini kengaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratishda ham muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda amalga oshirilgan institutsional va iqtisodiy islohotlar, jumladan, majburiy mehnatga barham berilishi,



shartnoma asosida erkin munosabatlar joriy etilishi va moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari klaster tizimining sifat jihatdan yangi bosqichga chiqishiga zamin yaratdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, klasterlar faoliyati respublika miqyosida paxta yetishtirish hajmini barqaror oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini chuqur qayta ishlash orqali tayyor mahsulot ulushini ko'paytirish va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Xorij tajribasi ham ushbu modelning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Biroq, paxta – to'qimachilik klasterlarida moliyaviy yukning yuqoriligi, boshqaruvdagi shaffoflik muammolari, kadrlar salohiyati va texnologik bazaning yangilanishidagi orqada qolish kabi qator kamchiliklar mavjud. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish va klaster ishtirokchilari o'rtasida manfaatlar muvozanatini ta'minlash zarur.

Umuman olganda, paxta-to'qimachilik klasterlarini yanada rivojlantirish O'zbekistonning agrar va sanoat sektorlarida barqaror iqtisodiy o'sish, eksport hajmini oshirish hamda hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. 29.01.2022 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Buxoro viloyatida zamonaviy paxtachilik-to'qimachilik klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2978-son qarori. 17.05.2017 y.
3. Porter, M. E. Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review, 1998 y.
4. Tursunov K.B., Rajabov N.R. Investitsion muhit jozibadorligini boshqarishni takomillashtirish. Monografiya, T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021, 212 bet.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Paxta xom ashyosini yetishtirish va sotishda bozor mexanizmlarini qo'llashni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-7-son farmoni. 17.01.2025 y.
6. Paxta-to'qimachilik klasterlar uyushmasi ma'lumotlari asosida muallif tomanidan ishlab chiqildi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
